



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№8(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 154 sahifa,
3-avgust, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Sun'iy intellekt muhitida o'sib kelayotgan Alfa avlodining shaxsiy va psixik rivojlanishi	10
Jo'rayeva Dilfuza Abdug'aniyevna	
Teng yonli uchburchak xossalari va kesmaning o'rta perpendikulyari xossalariidan foydalangan holda masalalar yechish	13
Namozov Diyorbek Baxtiyor o'g'li	
Xiva xonligining siyosiy boshqaruv modeli: Buxoro va Qo'qon xonliklari bilan qiyosiy tahlili.....	17
Mutallibjonov Boburmirzo	
Boshlang'ich sinfda informatika fanini o'qitish metodikasi	26
Nosirova Feruza Baxadir qizi	
Funksional savodxonlik asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini professional rivojlantirishning strukturaviy-faoliyatli modeli.....	30
Gafurova Mahfuza Abbosovna	
Mutafakkirlar asarlarida bolalar faolligini shakllantirishda o'yinlardan foydalanishning yoritilishi	35
Ravshanova Uldona Narziboyevna	
Ijtimoiy-madaniy qadriyatlar variatsiyasi sharoitida talabalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish mazmuni	39
Vorisova Barnoxon Olimjon qizi	
Huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya integratsiyasi orqali yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olish	43
Habibjonov Izzatbek Dilshodjon o'g'li	
Bo'lajak o'qituvchilarning tanqidiy va refleksiv tafakkurini rivojlantirishda antfragil yondashuvning o'rni.....	51
G'ulomjonova Ziyodaxon A'zamjon qizi	
Badiy adabiyotning yoshlar tarbiyasidagi didaktik imkoniyatlari	57
Irisboyeva Xotiraxon Utbasarovna	
Talabalarining o'quv amaliyoti jarayonida kasbiy mobilligini rivojlantirishda dual ta'limga asoslangan metodikani takomillashtirish	61
G'ofurov To'liqinjon	
Didactic Opportunities of Content and Language Integrated Learning (CLIL) Technology in English Language Teaching	67
Ismailova Aziza Dilshodovna	
Фольклорные источники в историко-географическом изучении памятников Устюрта.....	72
Канаатов Есимкан	
Xorijiy davlatlar tajribasida o'zgarishlarni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish amaliyoti.....	76
Abdullayev Amirulla Xazratovich	
Algoritmik faollikni rivojlantirishning zamonaviy metodik yondashuvi	81
Pardayeva Kamola Sultonovna	
Sun'iy intellekt va startap ekotizimi asosida talabalarining tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish	86
Imomaliyev Quvvat Choriyevich	
Maktab ta'limida o'qitish sifatini baholashning ko'p tarmoqli raqamli-diaagnostik tizimini joriy etish va boshqarish	91
Nurmetov Tursunbek Kenjayevich	
Event ta'lim texnologiyasi vositasida talabalarining o'qish samaradorligini oshirish	96
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi	
Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarining malakaviy va pedagogik amaliyotlari uzviyligini ta'minlashning metodik modeli	99
Mardonov Maqsudbek Maxmudovich	
Nogironligi bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatishning nazariy-metodologik asoslari	103
Umarova Umidaxon Ibaydullayevna	



Chizmachilik darslarida animatsiyali modellarni qo'llashning pedagogik asoslari	108
<i>Xo'janiyozov Shokir Rustamovich</i>	
Fanlararo aloqadorlik asosida tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish metodikasi va uning eksperimental samaradorligi	114
<i>Isroilova E'zoza Akmal qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida ingliz tilini o'qitishda veb-kvestlar va raqamli keyslarni samarali qo'llash usullari	119
<i>Shermatova Ra'no O'ktam qizi, Baxodirova Gulnoz Kamalovna</i>	
Xalq og'zaki ijodi asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ faoliyatini takomillashtirish texnologiyalari	124
<i>Abduraximova Muxabbat Allayevna</i>	
Bo'lajak fizika o'qituvchilarini nanotexnologiya sohasidagi bilimlarni taqdim etishga va o'qitishga tayyorlash metodikasi	129
<i>Sottarov Abduvali Umirqulovich</i>	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarning raqamli tafakkurini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish	133
<i>Nuraliyeva Feruza Abdusalim qizi</i>	
Emotsional intellekt va raqamli kommunikatsiya: yoshlar psixologiyasida zamonaviy tendensiyalar	137
<i>Qahharov Nuriddin Sherbek o'g'li</i>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda "o'quv burnout" (o'qishga nisbatan charchash va sovish) holatining oldini olishda motivatsion pedagogik texnologiyalar	142
<i>Babajanova Gulmira Muratbayevna</i>	
Linguopragmatic Errors in Artificial Intelligence-Generated Translations	147
<i>Aytmuxamedova Durdona Jasur qizi</i>	



EMOTSIONAL INTELLEKT VA RAQAMLI KOMMUNIKATSIYA: YOSHLAR PSIXOLOGIYASIDA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR

Qahharov Nuriddin Sherbek o'g'li

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
"Pedagogika va psixologiya" kafedrası o'qituvchisi



Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamli kommunikatsiya sharoitida yoshlar emotsional intellektning rivojlanish tendensiyalari zamonaviy psixologik nazariyalar asosida tahlil qilingan. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va mobil kommunikatsiya vositalarining yoshlarning emotsional rivojlanishi, ijtimoiy moslashuvi hamda psixologik farovonligiga ta'siri ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Mayer, Salovey va Carusoning qobiliyat modeli, Valkenburg va Peterning stimulatsiya hamda siqib chiqarish gipotezalari, Subrahmanyam va Šmahelning raqamli ijtimoiylashuv konsepsiyasi hamda Nesi va hamkorlarining raqamli media bo'yicha ilmiy qarashlari o'zaro integratsiyalashgan holda tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, emotsional intellekt yoshlarning raqamli muhitdagi kommunikativ muvaffaqiyati, empatiya, emotsionalarni boshqarish va psixologik barqarorligini ta'minlovchi muhim omillardan biridir. Shuningdek, maqolada raqamli kommunikatsiyaning ijobiy va salbiy psixologik oqibatlarini ham ilmiy asosda baholangan.

Kalit so'zlar: emotsional intellekt, raqamli kommunikatsiya, yoshlar psixologiyasi, empatiya, raqamli media, ijtimoiy tarmoqlar, psixologik farovonlik, onlayn kommunikatsiya, raqamli madaniyat, emotsionalarni boshqarish.

Abstract: This article examines contemporary trends in the development of emotional intelligence among young people in the context of digital communication. The psychological impact of the Internet, social media, and digital communication technologies on adolescents' emotional development, social adaptation, and psychological well-being is analyzed through contemporary theoretical approaches. The study integrates the Ability Model of Emotional Intelligence developed by Mayer, Salovey, and Caruso, the Stimulation and Displacement Hypotheses proposed by Valkenburg and Peter, the Digital Youth theory of Subrahmanyam and Šmahel, and recent findings presented by Nesi and colleagues. The findings indicate that emotional intelligence plays a crucial role in promoting empathy, emotional regulation, constructive online communication, and psychological resilience in digital environments. The study also discusses both the positive opportunities and potential psychological risks associated with digital communication among young people.

Key words: emotional intelligence, digital communication, youth psychology, empathy, digital media, social networks, psychological well-being, online communication, digital literacy, emotional regulation.

Аннотация: В статье рассматриваются современные тенденции развития эмоционального интеллекта молодежи в условиях цифровой коммуникации. На основе современных психологических концепций проанализировано влияние Интернета, социальных сетей и цифровых технологий общения на эмоциональное развитие, социальную адаптацию и психологическое благополучие молодых людей. Исследование основано на интеграции модели эмоционального интеллекта Майера–Саловея–Карузо, гипотез стимуляции и вытеснения Валкенбурга и Петера, концепции цифровой социализации Субраманьям и Шмагеля, а также современных исследований Неси и соавторов. Полученные результаты показывают, что эмоциональный интеллект является важным фактором формирования эмпатии, эмоциональной саморегуляции, конструктивного онлайн-взаимодействия и психологической устойчивости молодежи. Также рассмотрены позитивные возможности и потенциальные психологические риски цифровой коммуникации.

Ключевые слова: эмоциональный интеллект, цифровая коммуникация, психология молодежи, эмпатия, цифровые медиа, социальные сети, психологическое благополучие, онлайн-коммуникация, цифровая культура, эмоциональная регуляция.

KIRISH

Globallashuv va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida inson hayotining deyarli barcha jabhalari transformatsiyaga uchramoqda. Ayniqsa, yoshlarning ijtimoiylashuvi, shaxs sifatida shakllanishi va kommunikativ faoliyatida internet hamda raqamli platformalar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyo bo'yicha yoshlarning asosiy qismi kuniga bir necha soat davomida internet va ijtimoiy

tarmoqlardan foydalanadi. Bu esa ularning emotsional tajribasi, ijtimoiy munosabatlari hamda psixologik rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

An'anaviy muloqotdan farqli ravishda raqamli kommunikatsiyada hissiy axborot emoji, stiker, GIF, qisqa video va yozma matn orqali uzatiladi. Shu sababli yoshlarning emotsional intellekti yangi kommunikativ sharoitlarda namoyon bo'lmoqda. Zamonaviy psixologiyada emotsional intellekt shaxsning muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashuvi, psixologik barqarorligi va kommunikativ kompetentligining muhim omili sifatida e'tirof etiladi.

Mazkur tadqiqot raqamli kommunikatsiya sharoitida emotsional intellektning yoshlar psixologiyasidagi o'rni va rivojlanish tendensiyalarini zamonaviy ilmiy nazariyalar asosida tahlil qilishga qaratilgan.

Tadqiqot obyekti sifatida raqamli kommunikatsiya sharoitida yoshlarning emotsional intellekti va psixologik rivojlanishiga oid zamonaviy ilmiy tadqiqotlar tanlandi.

Tadqiqot predmeti – emotsional intellektning raqamli kommunikatsiya jarayonlaridagi namoyon bo'lish mexanizmlari, empatiya, emotsiyalarni boshqarish hamda yoshlarning psixologik farovonligi bilan bog'liqligidir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Internet, ijtimoiy tarmoqlar va mobil kommunikatsiya vositalari yoshlarning kundalik hayotining ajralmas qismiga aylangan. Natijada emotsional intellektning shakllanishi ham faqat an'anaviy ijtimoiy muhitda emas, balki raqamli makonda ham yuz bermoqda. Shu nuqtai nazardan, Kaveri Subrahmanyam va David Šmahelning^[1] asosiy ilmiy g'oyalarida raqamli media yoshlar hayotida shunchaki axborot almashish vositasi emas, balki yangi ijtimoiy muhit sifatida faoliyat yuritadi. Ushbu muhitda yoshlar o'z shaxsiyatini namoyon etadi, yangi ijtimoiy munosabatlarni shakllantiradi, emotsiyalarini ifodalaydi va tengdoshlari bilan o'zaro aloqalarni rivojlantiradi.

Emotsional intellektida emotsiyalarni anglash, ularni tushunish, boshqarish va boshqalarning hissiyotlariga nisbatan empatiya ko'rsatish jarayonida namoyon bo'ladi. An'anaviy muloqotda inson yuzma-yuz suhbatdoshining yuz ifodasi, tana harakati va ovoz ohangi orqali emotsional holatini anglaydi. Raqamli kommunikatsiyada esa ushbu belgilar ko'pincha mavjud bo'lmaydi. Natijada emotsiyalar matn, emoji, stiker, GIF, qisqa video va boshqa raqamli belgilar yordamida ifodalanadi. Bu esa yoshlardan emotsional axborotni yangi vositalar orqali to'g'ri talqin qilish ko'nikmasini talab etmoqda.

Virtual olamda foydalanuvchi o'z fikrini erkinroq ifoda etishi, yangi rollarni sinab ko'rish va turli ijtimoiy guruhlariga qo'shilishi mumkin. Bu jarayon shaxsning o'zini anglashiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Biroq anonimlik va virtual obraz yaratish imkoniyati ayrim hollarda real va virtual "Men" o'rtasida tafovut paydo bo'lishiga ham sabab bo'lmoqda. Shu bilan birga, virtual muloqotning haddan tashqari ustunligi real hayotdagi bevosita muloqotning kamayishiga olib kelishi mumkin. Bunday vaziyatda empatiya, nizolarni hal qilish, emotsiyalarni nazorat qilish va ijtimoiy moslashuv kabi emotsional intellekt tarkibiy qismlarining rivojlanishi sustlashishi ehtimoli mavjud.

Raqamli kommunikatsiyaning yana bir muhim jihati - ijtimoiy qo'llab-quvvatlash imkoniyatidir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, internet orqali yoshlar o'z muammolari haqida ochiqroq gapirishlari, ruhiy qo'llab-quvvatlash olishlari va o'xshash qiziqishlarga ega insonlar bilan muloqot qilishlari mumkin.

Biroq bu jarayonda raqamli kommunikatsiyaning salbiy jihatlari ham mavjud. Kiberbulling, internetga qaramlik, ijtimoiy tarmoqlarda o'zini boshqalar bilan doimiy taqqoslash, shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi va noto'g'ri axborotning keng tarqalishi yoshlarning emotsional rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillar sifatida baholanadi. Bunday omillar stress, xavotir, depressiv holatlar va emotsiyalarni boshqarish qobiliyatining pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli raqamli zamonda emotsional intellektni rivojlantirish zamonaviy psixologiyaning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Peter Salovey va John Mayer nazariyasiga ko'ra^[2], emotsional intellekt insonning kommunikativ faoliyatida muhim psixologik resurs hisoblanadi. Chunki samarali muloqot faqat axborot almashish jarayoni emas, balki hissiy holatlarni anglash va ularga mos ravishda munosabat bildirish jarayonidir. Inson suhbatdoshining kayfiyati, ehtiyojlari va hissiy reaksiyalarini tushuna olgan taqdirda ijtimoiy munosabatlarni samarali shakllantira oladi. Raqamli muhitda emotsional intellektning ayniqsa ikki jihati - empatiya va emotsiyalarni boshqarish qobiliyati muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy tarmoqlardagi muloqotda turli fikrlar to'qnashuvi, tanqidiy izohlar va salbiy axborotlar bilan uchrashish mumkin. Bunday vaziyatlarda o'z hissiyotlarini nazorat qila olish, vaziyatni to'g'ri baholash va konstruktiv munosabat bildirish yoshlarning psixologik barqarorligini ta'minlovchi omillardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, emotsional intellekt yoshlarning onlayn ijtimoiy munosabatlarini shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Raqamli platformalar yangi muloqot imkoniyatlarini yaratgan bo'lsa-da, ular insondan yuqori darajadagi hissiy anglash va kommunikativ mas'uliyatni talab qiladi. Emotsional jihatdan yetuk foydalanuvchi virtual muhitda ham hurmatli muloqotni saqlash, boshqalarning nuqtai nazarini hisobga olish va nizoli vaziyatlarni boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ushbu konsepsiya raqamli texnologiyalar rivojlangan davrda inson omilining, ayniqsa hissiy ong va ijtimoiy kompetensiyalarning ahamiyati ortib borayotganini ko'rsatadi. Demak,



zamonaviy yoshlarning raqamli makondagi muvaffaqiyatli moslashuvi nafaqat texnologik ko'nikmalarga, balki rivojlangan emotsional intellektga ham bevosita bog'liq hisoblanadi.

Patti M. Valkenburg va Jochen Peterlarning asosiy ilmiy yondashuvi shundan iboratki, internet va raqamli kommunikatsiyaning yoshlar rivojlanishiga ta'siri bir tomonlama salbiy yoki ijobiy hodisa sifatida baholanmasligi kerak. Internetning ta'sirini tushuntirishda ikki asosiy gipotezani ilgari suradilar: stimulatsiya gipotezasi va siqib chiqarish gipotezasi ^[3].

Stimulatsiya gipotezasiga ko'ra, onlayn kommunikatsiya yoshlarning mavjud ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishi mumkin. Internet orqali muloqot qilish yoshlar uchun o'z fikrlarini erkin ifodalash, yangi ijtimoiy aloqalar o'rnatish va tengdoshlari bilan munosabatlarni mustahkamlash imkonini beradi. Muntazam ijtimoiy muloqot jarayoni yoshlarning empatiya, tinglash, fikr almashish va boshqalarning hissiy holatini tushunish kabi ko'nikmalarini rivojlantirishi mumkin. Raqamli kommunikatsiya ushbu jarayon uchun yangi maydon yaratadi.

Siqib chiqarish gipotezasiga ko'ra, haddan tashqari onlayn faoliyat real hayotdagi yuzma-yuz munosabatlarning kamayishiga olib kelishi mumkin. Natijada yoshlarning bevosita ijtimoiy tajribasi qisqarib, ijtimoiy muhitga kirishishdan qo'rqadigan, real empatiya ko'nikmalari shakllanmay qolishi va emotsional muloqot kabi ko'nikmalarning rivojlanishi qiyinlashishi mumkin.

Valkenburg va Peter tadqiqotlarining muhim jihati shundaki, ular internetning yoshlar psixologiyasiga ta'siri ko'proq foydalanish shakliga bog'liq ekanligini ko'rsatadilar. Ya'ni muammo internetning o'zida emas, balki undan qanday maqsadda foydalanishda namoyon bo'ladi. Masalan, do'stlar bilan faol muloqot qilish, qo'llab-quvvatlash olish va fikr almashish ijobiy psixologik natijalarga olib kelishi mumkin. Aksincha, passiv kuzatuv, ijtimoiy taqqoslash yoki haddan tashqari foydalanish salbiy emotsional holatlarni kuchaytirishi mumkin.

Zamonaviy psixologiyada emotsional intellekt tushunchasining ilmiy rivojlanishida John D. Mayer, David R. Caruso va Peter Saloveylarning tadqiqotlari alohida o'rin tutadi. Ushbu olimlar emotsional intellektni shaxsning xarakter xususiyati yoki oddiy ijtimoiy ko'nikmasi sifatida emas, balki insonning hissiy axborotni qayta ishlash qobiliyatiga asoslangan alohida intellekt turi sifatida izohlaydilar. Ularning yondashuvi "ability model" (qobiliyat modeli) nomi bilan mashhur bo'lib, emotsional intellektni ilmiy o'lchash va tadqiq qilish imkonini berdi.

John D. Mayer, David R. Caruso va Peter Saloveylarning ^[4] asosiy ilmiy g'oyasiga ko'ra, inson nafaqat mantiqiy va akademik bilimlarga ega bo'lishi, balki emotsional ma'lumotlarni ham tushunish va ulardan samarali foydalanish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Chunki kundalik hayotdagi ko'plab qarorlar, ijtimoiy munosabatlar va kommunikativ jarayonlar hissiy axborot bilan chambarchas bog'liqdir.

Olimlar emotsional intellektni to'rtta o'zaro bog'liq qobiliyat orqali tushuntiradilar:

Birinchisi - emotsiyalarni idrok etish qobiliyati. Bu insonning o'z hissiy holatini va boshqa odamlarning emotsiyalarini aniqlay olish qobiliyatidir. Raqamli kommunikatsiya sharoitida ushbu qobiliyat yangi shakllarda namoyon bo'ladi. Chunki internet orqali muloqotda yuz ifodasi va tana harakatlari kabi tabiiy emotsional belgilar kamayadi. Natijada yoshlar hissiyotlarni matn, emoji, ovozi xabar yoki vizual belgilar orqali anglashga moslashadi.

Ikkinchisi - emotsiyalardan fikrlash jarayonida foydalanish qobiliyati. Mualliflar emotsiyalar inson tafakkuriga ta'sir qiluvchi muhim axborot manbai ekanligini ta'kidlaydilar. Shaxs o'z hissiy holatini tushungan holda vaziyatni yaxshiroq baholaydi va samaraliroq qaror qabul qiladi. Yoshlarning raqamli muhitdagi faoliyatida bu qobiliyat ayniqsa muhimdir, chunki ijtimoiy tarmoqlarda tezkor reaksiyalar, bahslar va turli fikrlar bilan ishlashga to'g'ri keladi.

Uchinchi jihat - emotsiyalarni tushunish qobiliyati. Bu turli hissiyotlarning kelib chiqish sabablari va rivojlanish jarayonlarini anglashni anglatadi. Virtual muloqotda ko'pincha qisqa yozishmalar sababli noto'g'ri tushunishlar yuzaga kelishi mumkin. Emotsional intellekti rivojlangan shaxs esa xabar mazmunini faqat yuzaki emas, balki kommunikativ vaziyat bilan bog'liq holda tahlil qiladi.

To'rtinchi va eng yuqori darajadagi qobiliyat - emotsiyalarni boshqarish hisoblanadi. Mayer, Caruso va Salovey fikricha, inson o'z hissiyotlarini nazorat qila olishi va ularni konstruktiv yo'nalishga yo'naltira olishi kerak. Bu qobiliyat ayniqsa raqamli kommunikatsiyada muhimdir, chunki internet muhitida foydalanuvchilar ko'pincha tanqid, nizolar, salbiy fikrlar va hissiy bosimlarga duch keladilar.

Mazkur nazariya yoshlarning raqamli kommunikatsiyasini tushuntirishda muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda yoshlarning ijtimoiy hayotining katta qismi virtual platformalarga ko'chmoqda. Shu sababli ularning kommunikativ muvaffaqiyati faqat texnik bilimlarga emas, balki emotsional axborotni qayta ishlash qobiliyatiga ham bog'liq bo'lmoqda.

Mayer, Caruso va Salovey yondashuvining muhim jihati shundaki, ular emotsional intellektni rivojlantirish mumkin bo'lgan qobiliyat sifatida ko'radilar. Bu esa ta'lim jarayonida yoshlarning nafaqat akademik bilimlarini, balki empatiya, o'zini boshqarish va ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

Raqamli kommunikatsiya sharoitida ushbu qarashlar yanada dolzarb bo'lib bormoqda. Chunki virtual muhitda insonning hissiy reaksiyalari tez-tez namoyon bo'ladi, ammo ularni to'g'ri tushunish va boshqarish har



doim ham oson emas. Shuning uchun emotsional intellekt yoshlarning raqamli madaniyati va psixologik barqarorligining muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

Umuman olganda, Mayer, Caruso va Saloveyning qobiliyat modeli emotsional intellektni ilmiy jihatdan tushuntirish va o'lchash uchun mustahkam nazariy asos yaratdi. Ushbu model zamonaviy raqamli kommunikatsiya sharoitida yoshlarning empatiya, ijtimoiy moslashuv, konfliktlarni boshqarish va psixologik farovonligini tadqiq qilishda muhim metodologik ahamiyatga ega.

Zamonaviy jamiyatda raqamli texnologiyalar yoshlarning kundalik hayotida markaziy o'rin egallamoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, messengerlar, onlayn platformalar va mobil qurilmalar yoshlarning muloqot qilish, axborot olish va o'zini namoyon qilish usullarini tubdan o'zgartirdi. Shu sababli raqamli medianing o'smirlar psixologiyasi va ruhiy salomatligiga ta'sirini o'rganish zamonaviy psixologiyaning dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylandi. Jacqueline Nesi, Eva H. Telzer va Mitchell J. Prinstein^[5] muharrirligida tayyorlangan "Handbook of Adolescent Digital Media Use and Mental Health" ana shu masalalarni kompleks ilmiy asosda tahlil qiluvchi muhim tadqiqot manbalaridan biri hisoblanadi.

Mazkur qo'llanmaning asosiy ilmiy g'oyasi shundan iboratki, raqamli media yoshlarning rivojlanishiga oddiy texnologik vosita sifatida emas, balki ularning ijtimoiy, emotsional va psixologik tajribalarini shakllantiruvchi muhit sifatida ta'sir qiladi. Olimlar raqamli kommunikatsiyaning ta'sirini faqat ijobiy yoki salbiy hodisa sifatida baholash noto'g'ri ekanligini ta'kidlaydilar. Chunki raqamli texnologiyalarning natijasi yoshlarning individual xususiyatlari, foydalanish maqsadi, ijtimoiy muhiti va onlayn faoliyat shakliga bog'liq bo'ladi.

Raqamli kommunikatsiyaning yoshlar psixologiyasiga ta'sirini tushunishda eng muhim jihatlardan biri - uning ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishdagi rolidir. O'smirlar davrida tengdoshlar bilan munosabat, ijtimoiy qabul qilinish va o'zini namoyon qilish ehtiyoji kuchli bo'ladi. Raqamli platformalar esa yoshlarga do'stlik aloqalarini saqlash, yangi ijtimoiy guruhlar qo'shilish va o'z fikrlarini keng auditoriyaga yetkazish imkonini beradi.

Ushbu jarayon emotsional intellekt bilan bevosita bog'liq. Chunki raqamli muhitda samarali muloqot qilish uchun yosh inson nafaqat axborotni uzatishi, balki boshqa insonlarning hissiy holatini tushunishi, empatiya ko'rsatishi va o'z reaksiyalarini boshqara olishi kerak. Raqamli kommunikatsiyada yuzma-yuz muloqotdagi ko'plab emotsional belgilar kamaygani sababli, yoshlar hissiyotlarni yangi shakllarda anglashga moslashadilar.

Yoshlar psixologiyasi nuqtai nazaridan raqamli emotsiyalar alohida ahamiyatga ega. O'smirlarlik va yoshlik davrida shaxsiy identifikatsiya, tengdoshlar tomonidan qabul qilinish va ijtimoiy mavqega ega bo'lish ehtiyoji kuchli bo'ladi. Ijtimoiy tarmoqlar esa yoshlar uchun o'zini namoyon qilish va boshqalarning munosabatini olish imkoniyatini yaratadi. Biroq doimiy baholanish, layklar soniga bog'lanish va boshqalar bilan taqqoslash ayrim hollarda emotsional beqarorlikni kuchaytirishi mumkin.

Raqamli dunyoda empatiya masalasi ham muhim ilmiy muammolardan biridir. An'anaviy muloqotda inson boshqa shaxsning hissiyotlarini bevosita kuzatish orqali tushunadi. Virtual muloqotda esa empatiya ko'proq kognitiv tushunish va kommunikativ belgilarni to'g'ri talqin qilish orqali amalga oshadi. Shu sababli yoshlarning raqamli empatiyasini rivojlantirish zamonaviy psixologiyaning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Raqamli emotsiyalar masalasida yana bir muhim jihat - hissiy boshqaruvdir. Internet muhitida inson turli xil axborot oqimlari, tanqidiy fikrlar va ijtimoiy bosimlarga duch keladi. Emotsiyalarni boshqarish qobiliyati rivojlangan shaxs bunday vaziyatlarda o'z reaksiyalarini nazorat qila oladi, vaziyatni tahlil qiladi va konstruktiv munosabat bildira oladi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalarning emotsional qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini ham ko'rsatadi. Onlayn hamjamiyatlarda, ijtimoiy guruhlar va muloqot platformalari ayrim yoshlar uchun psixologik yordam manbai bo'lishi mumkin. Ayniqsa, o'z muammolarini bevosita muhokama qilish qiyin bo'lgan shaxslar uchun raqamli muhit qo'llab-quvvatlovchi kommunikativ makon yaratadi.

Umuman olganda, raqamli dunyoda emotsiyalar masalasi inson hissiyotlarining yo'qolishi emas, balki ularning yangi shakllarda namoyon bo'lish jarayonidir. Raqamli kommunikatsiya yoshlarning emotsional tajribasini o'zgartirib, yangi imkoniyatlar va yangi psixologik muammolarni yuzaga keltirmoqda. Shu sababli zamonaviy yoshlar psixologiyasida emotsional intellekt, raqamli savodxonlik va onlayn empatiya bir-biri bilan bog'liq holda o'rganilishi zarur.

Raqamli muhitda emotsiyalarni samarali boshqarish va tushunish yoshlarning psixologik farovonligi uchun muhim omil hisoblanadi. Texnologiyalar insonlar o'rtasidagi hissiy aloqalarni kamaytirmaydi, balki ularni yangi kommunikativ shakllarga moslashtiradi. Biroq bu jarayonda emotsional intellekt va raqamli madaniyatning rivojlanligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot nazariy-tahliliy yo'nalishda olib borildi. Tadqiqot jarayonida raqamli kommunikatsiya sharoitida yoshlarning emotsional intellektini rivojlantirishga oid mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar, zamonaviy psixologik nazariyalar hamda xalqaro ilmiy tadqiqotlar tahlil qilindi. Jumladan, emotsional intellekt, raqamli



kommunikatsiya va yoshlar psixologiyasiga oid ilmiy manbalar qiyosiy jihatdan o'rganilib, ularning o'xshash va farqli tomonlari aniqlandi.

Tadqiqotda ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy taqqoslash, tizimlashtirish, umumlashtirish hamda mantiqiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish metodi orqali emotsional intellektning mazmuni, tarkibiy komponentlari va raqamli muhitdagi namoyon bo'lish xususiyatlari yoritildi. Qiyosiy taqqoslash metodi yordamida xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning ilmiy qarashlari o'zaro solishtirilib, raqamli kommunikatsiyaning yoshlar psixologiyasiga ta'siri bo'yicha umumiy va o'ziga xos jihatlari aniqlandi.

Tizimlashtirish va umumlashtirish metodlari asosida emotsional intellektni rivojlantirishga xizmat qiluvchi psixologik hamda pedagogik omillar yagona konseptual tizimga keltirildi. Mantiqiy tahlil metodi orqali raqamli kommunikatsiya jarayonida emotsionalni anglash, boshqarish, empatiya va kommunikativ kompetentlikning o'zaro bog'liqligi ilmiy jihatdan asoslandi.

Qo'llanilgan metodlar tadqiqot mavzusining nazariy asoslarini yoritish, mavjud ilmiy qarashlarni tizimli tahlil qilish hamda raqamli kommunikatsiya sharoitida yoshlarning emotsional intellektini rivojlantirishga oid ilmiy xulosalarni shakllantirish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Nazariy tahlillar shuni ko'rsatdiki, raqamli kommunikatsiya yoshlarning emotsional rivojlanishiga ikki tomonlama ta'sir ko'rsatadi.

Birinchidan, raqamli platformalar yoshlarning ijtimoiy faolligini oshiradi, emotsional qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini kengaytiradi hamda yangi ijtimoiy aloqalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, introvert yoki ijtimoiy muloqotda qiyinchilikka duch keladigan yoshlar uchun internet o'z fikrini erkin ifodalash imkoniyatini yaratadi.

Ikkinchidan, ijtimoiy tarmoqlardan me'yorida ortiq foydalanish, passiv kuzatuv, doimiy taqqoslash, kiberbulling va axborot bosimi emotsional zo'riqish, xavotir, depressiv holatlar hamda psixologik beqarorlikni kuchaytirishi mumkin.

Tahlillar Mayer, Salovey va Carusoning qobiliyat modeli raqamli kommunikatsiyani tushuntirishda yuqori metodologik salohiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Emotsionalni idrok etish, tushunish, ulardan foydalanish va boshqarish qobiliyatlari virtual kommunikatsiyada samarali ijtimoiy moslashuvni ta'minlovchi asosiy psixologik omillar hisoblanadi. Shuningdek, Valkenburg va Peter ilgari surgan stimulatsiya gipotezasi faol onlayn kommunikatsiyaning emotsional kompetensiyalarni rivojlantirishini tasdiqlasa, siqib chiqarish gipotezasi virtual faoliyatning me'yorida ortishi real ijtimoiy munosabatlarning zaiflashishiga olib kelishini ko'rsatadi. Olingan ilmiy natijalar raqamli kommunikatsiya sharoitida emotsional intellektni rivojlantirish yoshlarning psixologik salomatligi, ijtimoiy moslashuvi va raqamli madaniyatini shakllantirishning muhim omillaridan biri ekanligini tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli transformatsiya sharoitida emotsional intellekt yoshlarning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi va psixologik farovonligini ta'minlovchi asosiy psixologik resurslardan biri hisoblanadi. Zamonaviy raqamli kommunikatsiya yoshlar uchun keng imkoniyatlar yaratishi bilan birga, emotsional boshqaruv, empatiya va psixologik barqarorlikka yangi talablarni ham qo'ymoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli muhitning ijobiy ta'siri undan foydalanish madaniyati va emotsional intellekt darajasiga bevosita bog'liq.

Emotsional kompetensiyalari rivojlangan yoshlar virtual makonda konstruktiv muloqot olib borish, salbiy axborotlarga nisbatan barqaror munosabat bildirish hamda sog'lom ijtimoiy aloqalarni shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bois oliy ta'lim muassasalari, umumta'lim maktablari hamda psixologik xizmat tizimida emotsional intellekt, raqamli madaniyat va onlayn empatiyani rivojlantirishga qaratilgan maxsus o'quv dasturlari hamda psixoprofilaktik treninglarni joriy etish maqsadga muvofiqdir. Kelgusidagi tadqiqotlarda O'zbekiston yoshlarining emotsional intellekti va raqamli kommunikatsiya xususiyatlarini empirik metodlar asosida o'rganish, milliy diagnostik mezonlarni ishlab chiqish hamda ularning psixologik farovonlik bilan bog'liqligini statistik jihatdan tahlil qilish istiqbolli ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Subrahmanyam, K., & Šmahel, D. (2011). Digital Youth: The Role of Media in Development. New York: Springer.
2. Salovey, P., & Mayer, J. D. (1990). Emotional Intelligence. *Imagination, Cognition and Personality*, 9(3), 185–211.
3. Valkenburg, P. M., & Peter, J. (2007). Online Communication and Adolescent Well-Being: Testing the Stimulation Versus the Displacement Hypothesis. *Journal of Computer-Mediated Communication*, 12(4), 1169–1182.
4. Mayer, J. D., Salovey, P., & Caruso, D. R. (2004). Emotional Intelligence: Theory, Findings, and Implications. *Psychological Inquiry*, 15(3), 197–215.
5. Nesi, J., Telzer, E. H., & Prinstein, M. J. (Eds.). (2022). *Handbook of Adolescent Digital Media Use and Mental Health*. Cambridge University Press. <https://doi.org/10.1017/9781108976237>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.